

ABDULLA QODIRIY GAVHAR XAZINASI

Rizayeva Asila Akmal qizi

*“Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi” kafedrası talabasi
Toshkent davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar*

Normatova Nasiba Rafailovna

*“Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi” kafedrası dotsent,
Toshkent davlat texnika universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar*

Annotation: *Abdulla Qodiriy xalq uchun ilm-ma’rifat havodek zarur bo’lgan, yurt tepasida johil shaxslar egalik qilayotgan bir zamonda yashab o’tdi. Yaratgan qahramonlari orqali xalqni o’tgan kunlardan saboq olishga, o’z oramizdagi mehrobdan chiqayotgan chayonlardan ehtiyot bo’lishga chaqirdi. Millatning har bir xonadoniga Otabek, Kumush, Anvar, Ra’nolar qiyofasida kirib bordi, ular taqdiri orqali xalqni o’ylatdi, yig’latdi, yupatdi. Hayoti tazyiqlar, xavf-xatarlar ostida qolsa ham millati uchun yozishdan to’xtamadi...*

Kalit so’zlar: *Julqunboy, Rostgo’y adib, 1937-yil 31-dekabr, Padarkush, 1938-yil 4-oktabr.*

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) xalqimiz ichra mashxur bo'lgan yozuvchilardan, qalami o'tkir, ilm-ma'rifatga o'ch yorqin iste'dod egasi. Uning asarlarida o'zbek tilining butun jozibasi namoyondir. Buyuk romannavis Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahridagi Eshonguzar mahallasida tug'ulgan. Otasi Qodirbobo, beklar qo'lida sarbozlik qilgan. Otasi boshidan o'tkazgan sarguzashtlari Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarini yuzaga kelishida muxim rol o'ynagan. Abdulla Qodiriy dastlab 1904-1906-yillarda musulmon maktabida, 1908-1912-yillarda esa rus-tuzem maktabida, 1916-1917-yillarda Abulqosim shayx madrasasida ta'lim oldi. Abdulla Qodiriy millatparvarlik hamda ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, yurtparvarlik g'oyalariga oxirigacha izchil sodiq qolgan adibdir. Abdulla Qodiriyning matbuotdagi ilk chiqishi 1913-1914 yillarga to'g'ri keladi. Manbalarga ko'ra, uning birinchi maqolasi 1914 yil 1 aprelda, "Sadoyi Turkiston" gazetasida "Yangi masjid va maktab" sarlavhasi bilan bosilib chiqadi.

Hali yosh yozuvchi ilk ijodini kichik-kichik maqola, xabarlar yozishdan boshlagan. Abdulla Qodiriy millatga ideal namunasi bo'la olgan qaxramonlarning xissiyotlari va kechinmalarini tasvirlagan. Dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y» (1914-1915) kabi she'rlari bosilib chiqqan edi. U o'z millatini ma'rifatga chaqiradi, ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. «Baxtsiz kuyov» (1915) nomli fojeasi, «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarida ham o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. Bu asarlarni yozishga ilhomlantirgan omillar xususida adib shunday deydi:

“Padarkush” pesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborganimni o’zim ham payqamay qoldim. Yana shu yilda teatrlarda chiqib turgan hikoya va romanlarga taqlidan “Juvonboz” otliq hikoyani yozib, noshir topilmaganidan o’zim nashr qilib yubordim. Endi chin musannif bo’ldimov, deb quvonar edim...

Shu zaylda, zo’r qudrat bilan milliy adabiyotimiz sari navqiron, ammo juda katta iqtidor, ijodiy potensialga ega millat yozuvchisi shiddat bilan kirib kelmoqda edi. 1924 yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo’lib ishlay boshladi. Abdulla Qodiriyning “Mushtum” jurnalida birga faoliyat yuritgan safdoshlaridan biri o’z xotiralarida adib haqida shunday yozadi: “Abdulla Qodiriy har qanday narsaga tanqidiy nazar bilan qarar, eski xurofot narsalarga g’oyatda dushman edi. Uning har bir so’zidan hajviy ifoda anqib turar edi.

U g’oyatda jasoratli, o’z so’zida ustuvor va barqaror, o’tkir satirik va g’oyatda zakovatli edi. Kim to’g’risida yozadigan bo’lsa, xuddi o’sha shaxsning o’zi bo’lib ketar edi.

Uning «Toshpo’lat tajang nima deydi?» va «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» turkumidagi satirik hikoyalari mana shu "Mushtum" jurnalda ilk bor bosilib bordi. Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O’tgan kunlar» romani uchun material yig’ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o’zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O’tgan kunlar» uch bo’lim holidagi kitob bo’lib nashr etildi. 1928 yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi. 1934 yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo’jaligi mavzusi ga bag’ishlangan «Obid ketmon» qissasini yaratdi. Undan tashqari u Gogolning «Uylanish», Chexovning «Olchazor» va boshqa g’arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o’zbek tiliga tarjima qildi.

Abdulla Qodiriyning 44 yillik umri, 20 yillik ijtimoiy va ijodiy faoliyat davri keskin kurashlar, ta’qib-u taqdidlar ichida o’tgan bo’lsa ham u yengilmadi. Rostgo’y adib, sho’ro davri haqidagi badiiy asarlarida, sho’ro voqealigiga xos ziddiyatlarni, siyosatdagi xato va kamchiliklarni ko’rsatishga jazm etdi. Lekin bu uzoqqa bormadi.

1937-yil 31-dekabr kuni Abdulla Qodiriy, millat ruxini aks ettirgani, el-yurt qayg’usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g’oyalari va mafkuraga zid asarlar yaratganlikda ayblanib, xibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so’roq-tergov, qiynoq, xo’rlıklardan so’ng 1938-yil 4- oktabrda qatl etildi.

Abdulla Qodiriy o’limdan qo’rmagan, kiprik ham qoqmagan jasur o’zbek farzandi bo’lgan. U mardlarcha o’limning yuziga tik boqib halok bo’lgan. Uning o’zi yozgan quyidagi so’zlari naqadar haqiqatligini isbotlagan.

"Men haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman, agar otmoqchi bo'lsalar ko'kragimni kerib turaman"

Istiqlol davriga kelib Abdulla Qodiriy nomi va ijodi chin ma'noda hurmat va e'zoz ko'rdi. 1990-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi. 1991-yili esa Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. Abdulla

Qodiriy 1994-yili O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining uchinchi yilligida milliy ozodlik yo'lida ko'rsatgan matonati va buyuk xizmatlari o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Mustaqillik" ordeni bilan mukofatlandi. Bundan tashqari Abdulla Qodiriy uy muzeyi tashkil qilindi. Koppina ko'chalar nomi Abdulla Qodiriy nomi bilan atala boshlandi. Haqiqatdan ham Abdulla Qodiriy biz uchun o'lgani yoq. Uning so'nmas asaralarida haligacha uning ruhi yashab kelmoqda.

Abdulla Qodiriy ijodidagi chuqur mazmunli, jozibador va ravshan shaklda ifoda eta olish, hayotdan yirik va salmoqli voqealarni tasvir uchun tanlay olish, hayotdagi dramatik vaziyatlarga e'tibor shaklning ixchamligi va katta ortiqchaliklardan xoli ifodaning ustunligi, so'zning ma'noga mosligi va yorqinligi, hammadan ham muhimi- kishilar harakteridagi muhim xususiyatlarni ko'ra olish va tasvir eta bilish yosh avlod uchun doimo ibrat namunasi bo'lib kelmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Botirova Sh.I. (2019). Poetics of artistic psychologism. Теория и практика современной науки, 2(44), 31-34.
2. Botirova Sh.I. (2018). Symbolic-figurative talk and psychological relations. «Экономика и социум». 12(55), 114-118.
3. A. Qadiri. "Last Dasy" Tashkent: Literature and Art Publishing House, 1974. 47 pages.
4. O.Nosirov. Creative person is an artistic style, the image of the author. Tashkent: Fan, 1981, 109-110 pages.